

UDK 808.5

Saydullayeva Surayyo Serajiddinovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Navoiy davlat pedagogika instituti
email: s.serajiddinovna@gmail.com

OLAM LISONIY MANZARASI VA TIL SHAXSINING MILLIY
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada til tizimi frazeologik birliklarining lingvomadaniy tadqiqi «olam manzarasi» va metaforik tabiatga ega bo'lgan «olam lisoniy manzarasi» atamalarining tavsifi misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: til tizimi, frazeologik birliklar, metafora, «olam manzarasi», lingvomadaniy tadqiqot, obraz.

Сайдуллаева Сурайё Сераджиддиновна
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Навоийский государственный педагогический институт
email: s.serajiddinovna@gmail.com

ЯЗЫКОВОЙ ПОРТРЕТ МИРА И НАЦИОНАЛЬНЫЕ
ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: В данной статье лингвокультурологическое исследование фразеологических единиц языковой системы освещается на примерах описания терминов «мировой пейзаж» и «мировой языковой портрет», имеющих метафорическую природу.

Ключевые слова: система языка, фразеологизмы, метафора, «картина мира», лингвокультурное исследование, образ.

Saydullayeva Surayyo Serajiddinovna
Doctor of philosophy in philology (PhD)
Navoi State Pedagogical Institute
email: s.serajiddinovna@gmail.com

LANGUAGE PORTRAIT OF THE WORLD AND NATIONAL
CHARACTERISTICS OF LINGUISTIC PERSONALITY

Abstract: In this article, the linguacultural study of phraseological units of the language system is illuminated using examples of the description of the terms “world landscape” and “world language portrait”, which have a metaphorical nature.

Keywords: language system, phraseological units, metaphor, "landscape of the universe", linguistic research, image.

Kirish.

Til tizimi frazeologik birliklarining lingvomadaniy tadqiqi «olam manzarasi» va metaforik tabiatga ega bo‘lgan «olam lisoniy manzarasi» (OLM) atamalarining tavsifi masalasini yoritishni taqozo qiladi. Olam manzarasi «kishining ongiga bog‘lanmagan real yoki ehtimoliy voqelikga nisbatan sub’ektning fikri va bilimlar majmui» [1:47], «borliq haqida jamoa (hamda guruh, individ) ongida shakllangan, bilimlarning tartibli majmui» [2:51] sifatida ta’riflanadi.

M.M.Makovskiy olam manzarasi tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: «olam xususiyatlarini uning sohiblari qanday anglasa, o‘shanday shaklda reprezentlovchi va u yoki bu rivojlanish bosqichidagi u yoki bu etnos vakili sifatida inson psixik hayotining barcha onlarini bir butun qilib birlashtiruvchi olamning global obrazi» [3:15-16]. Bundan lingvomadaniy jamoa vakillarining bilimi, lisoniy kompetensiyasi va madaniyati taraqqiyotiga mos ravishda olam manzaralari universallik va milliylik tamoyillariga ko‘ra farqlanishi ma’lum bo‘ladi. Olam etnolisoniy manzarasida gender, ijtimoiy, genetik yosh, guruh, individual kabi kategoriyalarga tayanib xos olam manzaralari farqlanadi.

Adabiyotlar tahlili.

OLM tushunchasining kelib chiqishi tarixi bir tomondan V. fon Humbold va neogumboldchilarning til ichki shakli haqidagi konsepsiyalari, ikkinchi tomondan, lingvistik nisbiylik nazariyasiga asoslangan amerika etnolingvistlarining g‘oyalari bilan bog‘lanadi. Ushbu tushunchani tilshunoslikka birinchilardan bo‘lib olib kirgan neogumboldchi L.Vaysgerber o‘zining 1929 yilda nashr qilingan «Ona tili va ruhning shakllanishi» nomli monografiyasida: «til o‘z egasiga boshqa tillardagidan farqli bo‘lgan dunyoni yaxlit ko‘rish tarzini ato etishini», «ona tili va

har bir insonning ma'naviy shakllanishi o'zaro chambarchas bog'liqligini» va «tilshunoslik tillarni xalqlar madaniyatining ko'zgusi sifatida o'rganmog'i lozim»ligini ta'kidlaydi [4:120,135,173].

O'zbek tilida hozirda istifoda etilayotgan «olam lisoniy manzarasi» atamasi rus tilidagi «языковaya картина мира» atamasini kalkalash yo'li bilan hosil qilingan. Rus tilidagi «kartina» so'zi «lisoniy obrazlarda ko'rish, tahlil yoki ifodalash mumkin bo'lgan narsa» hamda «biron narsaning ko'rinishi, vaziyati, holati» [5:231], «biron narsaning so'z orqali ifodalangan yorqin tasviri» sifatida izohlanadi [6:419]. Tasvir obraz orqali tavsiflanadi, obraz esa «tashqi olam predmet va hodisalarining ongda qayta in'ikos etilishi» sifatida izohlanadi [7:682]. OLM atamasi komponenti bo'lgan «manzara» leksemasi lug'atda quyidagicha izohlanadi: «ko'zga tashlanib turadigan yoki tasavvur etiladigan ko'rinish, tasvir» [O'TIL:537]. «Tasvir»ning lug'atdagi ikkinchi ma'nosi «narsa, voqea-hodisa va sh.k.larning badiiy ifodasi, tavsifi» [O'TIL:8]. Bundan OLM bizni o'rab turgan olamdagi moddiy va nomoddiy ob'ektlarning til vositasida moddiylashib va badiiy tavsiflanib, yaxlit gavdalangan shakli ekanligi anglashildi.

Umuman, OLM tushunchasining har qanday talqini mutlaq haqiqatga da'vo qila olmaydi. OLM ob'ektiv mavjud realiya emas, balki mushohadaga asoslangan nazariya. OLM til sohiblarining muayyan maqsadga yetishish uchun ma'lum bir nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda o'ziga xos qurol hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, OLM ko'proq milliylik tabiatiga ega, chunki til milliylik tabiatiga ega fenomendir. Frazeologik birliklar negizida olam fragmentlari konseptuallashuvining tahlilidan vujudga kelgan hosilani olamning frazeologik manzarasi deya olamiz. Frazeologizmlarda lingvomadaniy jamoaning dunyoqarashi va olamni obrazli anglashi, ularning madaniyati yorqinroq tajassum etadi. Frazeologik olam manzarasida etnosning olam haqidagi bilimlari, ularning olam tashakkuli haqida tasavvurlari jo bo'ladi.

M.V.Pimenovaga ko'ra, OLM - «olam haqida tilda o'z ifodasini topgan bilimlar majmui hamda yangi bilimlarga ega bo'lish va talqin qilish tarzi» [8:8]. Bundan OLM dinamik va statik tabiatga ega ekanligi, olam fragmentlarini

konseptuallashuvi lingvomadaniy jamoaning intellektual imkoniyatlariga bog'liqligi anglashiladi.

N.Yu.Shvedova olam lisoniy manzarasini quyidagicha talqin qiladi: «(o'z) tuzilishida va uning (olam-Yu.N) qismlari aloqalari, birinchidan, insonning moddiy va ruhiy hayot faoliyatini, ikkinchidan, uni (inson-Yu.N.) o'rab turgan hamma narsa: makon va zamon, jonli va jonsiz tabiat, inson tomonidan yaratilgan miqlar va sotsium makonini namoyon qiluvchilarni til bilan anglanishida xalq tajribasining asrlar davomida shakllangan va lisoniy nomlash vositalari bilan yuzaga chiqqan barcha mavjudlikni yaxlit va ko'p tarkibli olam sifatidagi tasviri» [9:15]. Inson va borliqdagi hodisa va predmetlarning lisoniy konseptuallashuvi natijasida namoyon bo'luvchi majmuaviy ierarxik shakldir.

N.Yu.Shvedova OLMini quyidagi uch jihatdan farqladi: «a) atovchi birliklar sinfi bilan ifodalanadigan “tasviriy polotno”; b) polotnoni qamrab oluvchi va uning qismlarini asosli bog'lovchi lisoniy ma'nolar zanjiri; v) butun makon bo'ylab erkin harakatlanuvchi va uning turli birliklari va to'plamiga yo'nala oladigan tavsiflovchi ma'nolar zanjiri» [10:15].

Lisoniy madaniyatshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri «olam lisoniy manzarasi» til va tafakkur, til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasi yechimini insoning olam haqidagi tasavvurini o'rganish asosida ochib beradi. V.I.Postovalova tildagi inson omili va olam manzarasi masalalariga bag'ishlangan asarida olam manzarasi ikki asosiy funksiyani amalga oshirishini qayd etdi:

- talqin qilish (olamni his etishni amalga oshiradi);
- tartibga keltirib boshqarish (inson hayot faoliyatining universal orientiri (“yo'l xaritasi”- Yu.N) bo'lib xizmat qiladi) [11:25].

Olam lisoniy manzarasi xususida yuqoridagi va boshqa adabiyotlarda ilgari surilgan konsepsiyalardan kelib chiqib, uni quyidagicha tavsiflash mumkin: OLM – ongda real va abstrakt olamlarning mental kategoriyalar vositasida konseptuallashuvi va kategoriyalashuvi natijasida hosil bo'lgan axborotning madaniy va lisoniy shakli.

Olam manzarasi tushunchasi *mentalitet* va *mentallik* tushunchalariy bilan uzviy bog'liqligi sababli ularning tavsifiy xususiyatlarini yoritish o'rinlidir. *Mentalitet* nemischa leksema bo'lib, lotin tilidagi *mens*, *mentis* – aql, idrok ma'nosini anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan. Ushbu tushuncha jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixan tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy muhitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati (jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlar, diniy e'tiqod va irim-sirimlarini ham qamrab oladi)[O'TIL II : 580]. *Mentallik* – shaxs yoki ijtimoiy guruh, xalqqa xos bo'lgan muayyan fikrlash usuli, aqliy qobiliyatlar va ma'naviy munosabatlarning majmuidir. O'zbek xalqining fikrlash usullari va olam fragmentlariga munosabatlari til tizimining turg'un birikmalarida saqlanadi. Ushbu til belgilarining milliy aspektlari xos tahlillar vositasida ochiqqlanadi.

Antropolingvistikada "til shaxsi" tushunchasi muhim sanalib, kategorial statusga ega. Til shaxsiga birinchi marta e'tibor qaratgan olmon olimi I.Vaysgerber hisoblanadi. U o'zining "Ona tili va ruhning shakllanishi" (1927) kitobida: «... til o'zida anchayin umummadaniy boylikni ifoda etadi. Hech kim tilni faqat o'zining lisoniy shaxsi evaziga egallamaydi; aksincha uning muayyan lisoniy jamoaga mansubligi asosida tilni egallashi voqe bo'ladi» [12: 81]. V.Humboldt, K.Fossler, G.Shteyntal, A.Potebni va V.V.Vinogradov kabi olimlar ham o'z ishlarida til shaxsini tavsiflashgan. Til shaxsi tushunchasini yanada aniqroq ifodalash uchun tadqiqotchi olimlar o'z yondashuvlaridan kelib chiqib turli atamalarni istifoda qilishadi: «til shaxsi» (Yu.N.Karaulov), «so'zlovchi shaxs» (N.D.Arutyunova), «nutq shaxsi» (Yu.Ye.Proxorov), «kommunikativ shaxs» (V.V.Krasnix).

Tadqiqot metodologiyasi.

Lingvodidaktikda til shaxsi asosiy tushunchalardan biri sifatida qoraladi. «Til shaxsi – inson, uning nutqiy harakatlarni amalga oshirish, nutqiy matnlarni yaratish va qabul qilishga tayyorligi nuqtai nazaridan baholanadi. ... Til shaxsi – bu tilni o'zlashtirgan kishi, ya'ni uning uchun til nutq sifatida ko'riladi. Til shaxsi tilni qanchalik bilish bilan emas, balkim til bilan nima qila olishi bilan

tavsiflanadi»[13:3]. U inson lisoniy shaxs bo'lishning irsiy qobiliyatiga ega ekanligi, ammo bu lisoniy shaxsni anglatmasligini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar.

Yu.N.Karaulov tomonidan rus tili materiallari asosida til shaxsi modeli yaratilishi ushbu tushunchaning lingvistikada keng qo'llanishi va yangi konsepsiyalar ilgari surilishiga turtki bo'ldi. Lingvistikada *til shaxsi* birinchidan, «olamdagi muayyan maqsadlarga erishish va atrof-borliqni his etishni aks ettirish uchun o'z tilining tizimli vositalarini matnlarda qo'llash orqali yaratilgan matnlar tahlili asosida tavsiflangan u yoki bu tilning har qanday sohibi», ikkinchidan «matnlar funksional tahlili bilan tilning tizimli gavdalanishini bog'lovchi individning lisoniy qobiliyatini kompleks tavsiflash usuli» [14:156] sifatida ko'riladi. Yu.N.Karaulov til shaxsini voqelikni teran va aniq aks ettirish uchun struktur-lisoniy murakkablik darajalariga ko'ra farqlanuvchi muayyan maqsadga yo'nalgan matnlarni yarata olish va idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan inson sifatida tavsiflaydi. Tilshunos olim semantik va pragmatik nuqtai nazardan til shaxsini uch sathli struktura sifatida farqladi:

a) inson leksikonini tavsiflovchi verbal-grammatik yoki grammatik va leksik-semantik yoki struktur-sistem sath;

b) inson tezarusi, olam haqidagi bilimlar tizimini o'ziga biriktirgan kognitiv yoki lingvokognitiv sath;

v) nutqiy faoliyat jarayonida shaxsning maqsad, motiv va pragmatik dasturi tizimni ifodalovchi motivli yoki pragmatik [15:53] yoki lingvopragmatik sath.

Birinchi sath til birliklarini grammatik to'g'ri qo'llay oladigan har qanday shaxsni qamrab oladi. Ushbu sathni semantik-sintaktik yoki struktur-semantik yoki semantik-stilistik (<https://www.researchgate.net/pub>) deb nomlash taklif etilgan. Ikkinchi sath «faqatgina til so'zini tor ma'noda bilishni emas, til sohibining olam haqidagi bilimlarini, ya'ni olamning sodda lisoniy manzarasini biriktiradi» [16:89]. Va nihoyat, pragmatik sath «insonning olamdagi o'z o'rnini anglashi», «shaxsning motiv, maqsad, baho va xulq-atvor tamoyillari» bilan tavsiflanadi [17:155]. Ushbu

sath kommunikantlar bilimining umumiy fondi sifatida ko‘riladigan deysis, baho va presuppozitsiya kabi lingvistik atamalarni qamrab oladi.

Birinchi sathda madaniy komponentlarning faoliyat mexanizmlari yaqqol ko‘zga tashlanmasligi, diskursdagi vaziyatga bog‘li ravishda tilning leksik-grammatik vositalardan til sohiblari g‘ayrushuuriy foydalanishi ko‘zga tashlanadi, boshqacha aytganda, til shaxsining ichki psixologik holati, uning his-tuyg‘ulari tavsiflanadi. Masalan,

-Bilmaysan. Bilmaysan! Hojatxonalar oldida kesak ushatib o‘tirib, birovlarining qo‘liga suv quyib topganman. Sen yaramas, odamga o‘xshab yashagin, deb o‘zim qattiq non yeb, sovuq suv ichib to‘plaganman. Kechalari uxlamaganman.

Nizomjonning kallasi g‘uvillab, qo‘llari mushtga aylandi.

- Onamning rizqidan yulib qolib orttirgan noningiz menga kerak emas. Onamga yamoq bo‘z kiydirib orttirgan atlasingiz menga kerakmas. Men bu mollaringizga tupuraman! Kerak bo‘lsa, o‘zim ishlab topaman. Sizga o‘xshab haromdan emas, peshona terim bilan topaman (Said Ahmad, Hijron kunlari)

Ushbu dialogda “boylik” konseptining individual konseptuallashuvi ifodalangan. So‘zlovchi shaxs nutqi emotiv bo‘lib, ko‘plab ifoda vositalari va uslubiy mexanizmlarga ega: epitet: *yaramas*; metafora: *non, peshona ter*; sintaktik uslubiy vositalar: gradatsiya, takror so‘z.

Ikkinchi, lingvokognitiv sath til kognitiv mexanizmlarini, ya’ni voqelikni bilish mexanizmlari (bilish, anglash, baholash va nomlash)ga egalikning muayyan bir darajasini taqozo qiladi. Lingvomadaniy jamoaning olam haqidagi etnospesifik bilimlari konsept, freym, ssenariy kabi kognitiv modellarda o‘z ifodasini topadi. Ularning differensial belgilari ob’ekt va hodisalarning til shaxsi ongida aks etish tarzida namoyon bo‘ladi. Lisoniy konsept mutlaqo alohida fenomen “inson psixikasida aks etgan butun olam manzarasi, miya tili (*lingua mentalis*), konseptual tizim, mental leksikon va xotiraning operativ tarkibiy birligi” sifatida ko‘riladi [18:90]. Tilshunoslikda voqelik haqidagi standart bilimlarning jami *freym* deb nomlanadi. Dinamik tabiatli freymning zamon kategoriyasida rivojlanib etap va

epizodlar zanjirini hosil qilishidan ssenariy vujudga keladi. Albatta, bu bilimlar o'ziga xos ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Lisoniy xulq-atvorning kognitiv tahlili madaniyatning modus hamda ijtimoiy-psixologik tarkibini ochib beradi.

Ha, endi aqlim kirgan, endi hamma narsana tushungan edim. Muhabbat – muqaddas tuyg'u. U soflikni tarannum etadi. Muhabbat mening o'zimni ham, sevgimni ham tark etib, ko'zimni ochgan edi. Xalqning “insofli odam oshini yer, insofsiz - boshini” degan maqolida mujassamlangan hayotning eng ulug' qonunlaridan biri menga o'zining shafqatsiz, lekin adolatli kuchini ko'rsatgan edi (Said Ahmad, Ufq).

Uchinchi sath shaxsning kommunikativ ehtiyojlarini amalga oshishini ta'minlovchi madaniyatlilik darajasini taqozo qiladi. Madaniyatlilik “o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat”ni [O'TIL, II:521] anglatadi. Madaniyatlilik o'zida presuppozitsiya, paralingvistik vositalar, so'zlovchining motivatsion asosini saqlaydi. Presuppozitsiya kommunikantlar bilimining umumiy fondi sifatida tushuniladi. Paralingvistik ma'lumotlar lokal madaniyatning bir bo'lagi hisoblanadi. So'zlovchi sub'ektning motivli asosi madaniy belgiga ega bo'ladi. Ushbulardan til shaxsining lingvopragmatik aspekti muloqot ishtirokchilarining yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy mavqei, madaniylik va ma'lumotlilik darajalari kabi xilma-xil xususiyatlarni tasvirlovchi pragmatik omillar tahlilini qamrab olishi ma'lum bo'ladi. Quyidagi nutqiy ifodada Mahbubaning jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei va axloqiy madaniyati tasvirlanadi:

- Hech kimi yo'q, yetim qiz edim. Urush boshlangan kezlari o'n oltiga kirgan edim. Bilmadim, sal ko'zga yaqin bo'lganimdanmi atrofimda o'ralashadiganlar ko'payib qoldi. O'zim tarbiyalangan bolalar uyida ishda qolgan edim. ... bir kuni kayf bilan kirib xiralik qila boshladi. Men bolalar orasiga qochib chiqib ketdim. Oradan uch-to'rt kun o'tib meni ishdan bo'shatib yubordi. Qayoqqa boraman, qoralangan mehnat daftarchasi bilan meni kim ishga oladi. Qiynalib qoldim. Ammo buzqlik qilmadim (Said Ahmad, Ufq bo'sag'asida).

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi sathlarning barchasida til va madaniyatning o‘zaro munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Til shaxsi strukturasining tahlili olamning konseptual lisoniy manzarasini yaratishni ta‘minlaydi. Til ongning voqeligi ekanligidan kelib chiqsak, borliq fragmentlari mantiqiy-empirik va hissiy bilish (ko‘rish, eshitish, taktil, ta‘m va hid bilish) orqali til tizimida ob‘ektivlashib moddiy shaklga ega bo‘ladi. Vujudga kelgan moddiy shakl - til belgilarida madaniy va baho xususiyatli semantik axborotlarni saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богин Г.И. Концепсия языковой личности: Автореф. дис.... док. филол. наук. -Л., 1982. -31 с.
2. Болдырев Н. Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики// Вопросы когнитивной лингвистики. 2004. – №1.
3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeologiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand, 2011.-114 b.
4. Вайсгербер Й. Л. Родной язык и формирование духа. -М.: Едиториал, 2004. -232 с.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002. - 477 с.
6. Pimenova M.V. Yazykovaya kartina mira [Elektronnyy resurs]. M.: FLINTA, 2014. –108s.
7. Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi matnlarning antropotsentrik talqini: Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2015. – 102 b
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-IV tomlar. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2006.
10. Pinxasov. Ya.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Lesikologiya va frazeologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1969. – B. 55-65.;
11. Sapir E. Language, Culture and Personality (edited by David G. Mandelbaum). - University of California Press, 1963.- p. 642.;

12. Nacisione A. Stylistic Use Of Phraseological Units in Discourse. 2011.- p.289.;
13. C.Cacciari, P.Tabossi. The comprehension of idioms.Journal of Memory and Language27.1988,668-683.;
14. M.Everaert. Idioms: structural and Psychological Perspectives ,1995.p-329.;
15. Yo'ldoshev B. Frazеologik uslubiyat asoslari. O'quv qo'llanmasi. - Samarqand: SamDU nashri. 1998.-200 b
16. V.Evans, M.Green.Cognitive linguistics.2006,p-439.
17. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии: Дис. д-ра филол. наук. Л., 1961;
18. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. - М.: - 1972.; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единис в русском языке // Академик А.А.Шахматов (1864 - 1920): [Сб. ст.] / Под ред. С.П. Обнорского. - М.-Л., 1974.